STEAM ta'lim texnologiyasining optika bo'limini o'qitishdagi samaradorligi.....	655
<i>Turdaliyev Ulug'bek Valijon o'g'li</i>	
Umumta'lim maktablarida chet tili o'qitishda raqamli platformalarni integratsiya qilishning texnologiyasi va samaradorlik modeli	658
<i>Tursunboyeva Mavjudaxon Shukurillo qizi</i>	
Autistik spektri buzilishi bo'lgan bolalarda sensor-motor korreksiya asosida psixomotor rivojlanishni qo'llab-quvvatlash tizimi	664
<i>Usmanova Nilufar Ilhom qizi</i>	
Prostata bezining xavfsiz giperplaziyasi profilaktikasini augmented reality texnologiyasi asosida o'qitishni takomillashtirish	670
<i>Xo'jamberdiyev O'tkirbek Egamberdi o'g'li</i>	
Ecological Education in General Education Schools.....	675
<i>Xojanov Baxadir Keunimjaevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning volontyorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy jihatlarini	678
<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i>	
Xalq qo'shiqlari orqali 6–7-sinf o'quvchilarida adabiy- nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish	681
<i>Yuldasheva Noila Ravshan qizi</i>	
Креативное мышление: на пути к совершенствованию	685
<i>Абдулбориева Мехруза Анвар қизи</i>	
Зарубежный опыт в профессиональном образовании: тенденции и перспективы.....	689
<i>Азизова Асаль Руслановна</i>	
Muloqot turlari klassifikatsiyasi xususida shaxslararo muloqot madaniyati	693
<i>Urakov Sherzod Raxmonovich, Usarov Orifjon Olimovich</i>	



CASE STUDY METODINI BIOLOGIYA TA'LIMIGA INTEGRATSIYA QILISH ORQALI O'QUVCHILARNING TABIIY- ILMIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH


Raupova Mehrinigor Haydarovna

Buxoro davlat universiteti¹, Buxoro davlat pedagogika instituti²

Biologiya kafedrası dotsenti,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

<https://orcid.org/0000-0002-1762-8940>



Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya ta'limi jarayonida o'quvchilarning tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirish uchun "Case study" metodini qo'llashning samarali yo'llari tadqiq qilingan. Maqolaning asosiy maqsadi – an'anaviy ta'limni interfaol keys-texnologiyalari bilan integratsiya qilish orqali o'quvchilarning nazariy bilimlarini real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ilmiy yangiligi shundaki, biologiyaga oid maxsus ishlab chiqilgan keyslar to'plami o'quvchilarda nafaqat fanga oid bilimlarni, balki muammoni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash kabi XXI asr ko'nikmalarini ham bir vaqtning o'zida rivojlantirishini amaliy natijalar orqali asoslab beradi. Muallifning xulosasiga ko'ra, ushbu metod o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantirib, ta'lim sifatini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Case study, biologiya ta'limi, tabiiy-ilmiy kompetensiya, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv, keys-texnologiyasi, tanqidiy fikrlash.

Abstract: This article investigates effective ways of using the "Case study" method to develop students' natural-scientific competencies in biology education. The main purpose of the article is to form students' practical skills by integrating traditional teaching with interactive case-study technologies, thereby linking theoretical knowledge to real-life situations. The scientific novelty is that, based on practical results, the study substantiates the effectiveness of a specially developed set of biology-related cases, which simultaneously develops not only subject-specific knowledge but also 21st-century skills such as problem analysis, critical thinking, and teamwork. The author concludes that this method serves as a crucial tool for improving the quality of education by transforming the student from a passive listener into an active participant.

Key words: Case study, biology education, natural-scientific competence, interactive methods, pedagogical technologies, competency-based approach, case-study technology, critical thinking.

Аннотация: В данной статье исследованы эффективные пути применения метода "Case study" для развития естественно-научных компетенций учащихся в процессе преподавания биологии. Основная цель статьи – формирование у учащихся практических навыков путем интеграции традиционного обучения с интерактивными кейс-технологиями, что позволяет связать теоретические знания с реальными жизненными ситуациями. Научная новизна заключается в том, что на основе практических результатов обоснована эффективность специально разработанного сборника кейсов по биологии, который одновременно развивает не только предметные знания, но и такие навыки XXI века, как анализ проблем, критическое мышление и работа в команде. Автор приходит к выводу, что данный метод служит важным инструментом для повышения качества образования, превращая ученика из пассивного слушателя в активного участника.

Ключевые слова: Кейс-стади, преподавание биологии, естественно-научная компетенция, интерактивные методы, педагогические технологии, компетентностный подход, кейс-технология, критическое мышление.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim paradigmasi oldiga shunchaki muayyan bilimlar majmuasini o'zlashtirgan emas, balki egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladigan, mustaqil va tanqidiy fikrlovchi shaxsni shakllantirishdek muhim vazifa qo'yilgan. Ushbu jarayonda tabiiy fanlar, xususan, biologiya ta'limi o'quvchilarda atrof-muhitga ongli munosabatni, ilmiy dunyoqarashni va tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishda fundamental ahamiyat kasb etadi. Aynan shu sababli, o'quvchilarda tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish bugungi kun ta'limining dolzarb masalasi hisoblanadi. An'anaviy o'qitish metodlarining o'quvchini ko'pincha passiv tinglovchi



pozitsiyasida qoldirishi hamda nazariya va amaliyot o'rtasidagi uzviylikni yetarlicha ta'minlay olmasligi "Case study" (vaziyatli tahlil) kabi zamonaviy interfaol metodlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning ob'ekti – umumiy o'rta ta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti – biologiya darslarida "Case study" metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini shakllantirishning mazmuni, shakli va metodlari hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – biologiya darslariga "Case study" metodini tatbiq etishning samarali pedagogik strategiyalarini ishlab chiqish va uning o'quvchilarning tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ta'sirini tajribada asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

1. "Tabiiy-ilmiy kompetensiya" tushunchasining mohiyatini, uning tarkibiy qismlarini ilmiy-pedagogik adabiyotlar asosida tahlil qilish;
2. Biologiya ta'limida "Case study" metodini qo'llashning didaktik imkoniyatlari va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
3. Biologiya fanining fundamental mavzulariga moslashtirilgan, o'quvchilarda muammoli vaziyatni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi keyslar to'plamini ishlab chiqish va aprobatsiyadan o'tkazish;
4. "Case study" metodining o'quvchilar kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasiga ta'sirini tajriba-sinov ishlari orqali baholash va olingan natijalar asosida o'qituvchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'quvchilarning tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim jarayoniga interfaol metodlarni integratsiya qilish masalalari jahon va mahalliy pedagogika fanida keng ko'lamda tadqiq etilgan. Mazkur yo'nalishdagi ishlarni uch guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga, "Case study" metodining nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etgan xorijiy olimlarning ishlari kiradi. Xususan, Garvard universiteti olimlari L.B.Barnes, C.R.Christensen va A.J.Hansen o'zlarining fundamental ishlarida keys-stadini shunchaki bir metod emas, balki "ishtirokchiga asoslangan o'qitish san'ati" sifatida ta'riflab, uning talabalarda tahliliy va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirishdagi beqiyos o'rnini asoslab berishgan ^[1]. D.L.Shulman esa "Case study" o'qituvchilarga kasbiy bilimlarni ("pedagogical content knowledge") real sinf xonasi sharoitlariga bog'lash imkonini beruvchi kuchli vosita ekanligini ta'kidlaydi ^[2]. C.Ar-mistead o'z tadqiqotlarida keyslarni biznes-tahildan ta'limga muvaffaqiyatli tatbiq etish strategiyalarini ishlab chiqqan bo'lsa ^[3], W.Wassermann keys-stadi metodining didaktik tamoyillari, ya'ni muammoni aniq belgilash, muqobil yechimlarni tahlil qilish va eng maqbul variantni tanlash bosqichlarini ilmiy asoslab bergan ^[4]. Ushbu xorijiy tadqiqotlar keys-stadining umumdida didaktik imkoniyatlarini keng yoritib beradi, biroq ularda metodni aynan biologiya fanining o'ziga xos xususiyatlariga (masalan, ekologik muvozanat, genetik kasalliklar tahlili kabi mavzularga) moslashtirish masalalariga kamroq e'tibor qaratilgan.

Ikkinchi guruh tadqiqotlari O'zbekiston olimlarining interfaol ta'lim texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuvga bag'ishlangan ishlaridir. Jumladan, O'.Tolipov va M.Usmonboyeva o'zlarining ilmiy ishlarida pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari va ularni o'quv jarayoniga tatbiq etish mexanizmlarini chuqur tahlil qilganlar ^[5]. N.Muslimovning ishlari bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirish muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda interfaol metodlarning o'zni alohida ko'rsatib o'tilgan ^[6]. J.G'.Yo'ldoshev va S.A.Usmonovlar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilishning ilg'or tajribalarini umumlashtirganlar ^[7]. Ushbu mahalliy olimlarning ishlari mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun muhim nazariy-metodologik baza vazifasini o'taydi. Ammo, ushbu tadqiqotlarda "Case study" metodini aynan biologiya fanidan tabiiy-ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish vositasi sifatida maxsus o'rganilmagan.

Uchinchi guruhga esa bevosita biologiya o'qitish metodikasiga bag'ishlangan ishlarni kiritish mumkin. P.V.Ivanov kabi tadqiqotchilar o'z ishlarida biologiya ta'limida muammoli o'qitish texnologiyalaridan foydalanishni targ'ib qiladilar, bu esa o'z mohiyatiga ko'ra keys-stadiga yaqin turadi ^[8]. Biroq bu ishlarda ham tayyor keyslarni tahlil qilishdan ko'ra, o'quvchilar oldiga muammoli savol qo'yishga ko'proq urg'u beriladi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, mavjud adabiyotlarda "Case study" metodining umumiy jihatlar va O'zbekistonda kompetensiyaviy yondashuvning nazariy asoslari yetarlicha yoritilgan. Biroq, aynan umumta'lim maktablari biologiya dasturining muayyan mavzulariga (masalan, "OITSning kelib chiqishi va tarqalishi", "Orol dengizi qurishining ekologik oqibatlar", "GMO mahsulotlarining foydasi va zarari") moslashtirilgan, o'quvchilarda ham fanga oid bilimlarni, ham tanqidiy fikrlash, ham hamkorlikda ishlash kabi "yumshoq ko'nikmalar"ni bir paytning o'zida shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus keyslar to'plamini ishlab chiqish va uning samarasini amaliyotda asoslash masalasi alohida ilmiy-tadqiqot ishini talab etadi. Ushbu maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilganligi bilan o'ziga xosdir.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, bir nechta ilmiy-pedagogik metodlar majmuasidan foydalangan holda amalga oshirildi. Tadqiqotning har bir bosqichida qo'llanilgan metodlar uning xolisligi va natijalarning ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi. Dastlab, nazariy tahlil va sintez metodi orqali mavzuga oid falsafiy, psixologik-pedagogik adabiyotlar o'rganilib, asosiy tushunchalarning mazmun-mohiyati aniqlandi. Jumladan, "kompetensiya" atamasi ostida o'quvchining nafaqat o'zlashtirgan bilimlari, balki bu bilimlarni notanish, hayotiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati tushunildi. Shuningdek, tadqiqotimizning markaziy texnologiyasi bo'lgan "Case study" – ya'ni, real yoki unga maksimal darajada yaqinlashtirilgan muammoli vaziyatni o'quvchilar tomonidan tahlil qilish, muhokama etish va yechim topishga asoslangan o'qitish metodi ekanligi belgilab olindi. Bu ta'riflar tadqiqotning konseptual asosini yaratishga imkon berdi. Shuningdek, an'anaviy o'qitish usullari bilan "Case study" metodini qo'llash natijalarini o'zaro solishtirish uchun qiyosiy tahlil metodidan foydalanildi, bu interfaol metodning afzalliklarini aniq ko'rsatkichlar orqali ochib berishga yordam berdi.

Tadqiqotning amaliy bosqichi pedagogik kuzatuv va pedagogik eksperiment metodlariga tayandi. Kuzatuv jarayonida o'quvchilarning darsga munosabati, interfaol metodga moslashish dinamikasi va motivatsiyasidagi o'zgarishlar qayd etib borildi. Tadqiqotning asosiy isboti sifatida o'tkazilgan pedagogik eksperiment esa ikki guruh – an'anaviy usulda o'qitilgan nazorat guruhi hamda maxsus ishlab chiqilgan biologik keyslar to'plami asosida ta'lim olgan tajriba guruhini qamrab oldi. Eksperiment natijalari o'quvchilarning bilim darajasi, muammoni tahlil qilish va jamoada ishlash ko'nikmalarini baholashga qaratilgan maxsus testlar, so'rovnomalar va amaliy topshiriqlar orqali o'lchandi.

Yakuniy bosqichda, pedagogik eksperiment natijasida olingan miqdoriy ko'rsatkichlarning ishonchligi va ular orasidagi farqning statistik ahamiyatga egaligini isbotlash uchun matematik-statistik tahlil metodlaridan (o'rtacha arifmetik qiymatni hisoblash, o'sish dinamikasini foizlarda ifodalash) foydalanildi. Bu metod tajriba-sinov ishlarining xulosalari shaxsiy taxminlarga emas, balki aniq hisob-kitoblarga asoslanganligini ko'rsatishga xizmat qildi. Ushbu metodologik yondashuv tadqiqot muammosini har tomonlama o'rganish va "Case study" metodining biologiya ta'limidagi samarasini ilmiy jihatdan asoslangan xulosalar orqali isbotlashga zamin yaratdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotning metodologiyasiga muvofiq, "Case study" metodining o'quvchilarning tabiiy-ilmiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi samaradorligini baholash maqsadida pedagogik eksperiment o'tkazildi. Eksperiment Buxoro shahridagi 2 ta umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchilari orasida, jami 203 nafar o'quvchini (ularning 101 nafari tajriba, 102 nafari nazorat guruhiga kiritildi) qamrab oldi. Tajriba-sinov ishlari 2023-2024 o'quv yili davomida amalga oshirildi va uch bosqichda olib borildi:

- 1) aniqlash bosqichi (dastlabki diagnostika);
 - 2) shakllantirish bosqichi (metodni amaliyotga joriy etish);
 - 3) taqqoslash bosqichi (yakuniy natijalarni tahlil qilish).
1. **Aniqlash bosqichi:** Dastlab, har ikkala guruh o'quvchilarining tabiiy-ilmiy kompetensiyalarining boshlang'ich darajasi standartlashtirilgan testlar va muammoli vaziyatni yechishga qaratilgan amaliy topshiriqlar orqali baholandi. Baholash quyidagi uch asosiy mezon bo'yicha amalga oshirildi:
 - Fanga oid bilimlar (nazariy): Biologik atamalar, qonuniyatlar va jarayonlarni bilish darajasi.
 - Muammoni tahlil qilish (amaliy ko'nikma): Berilgan vaziyatdagi asosiy muammoni ajrata olish, uning sabablarini topish va yechimlar taklif qilish.
 - Hamkorlikda ishlash (kommunikativ ko'nikma): Kichik guruhlarda fikr almashish va umumiy xulosaga kela olish qobiliyati.

Dastlabki natijalar ikkala guruhning ko'rsatkichlari deyarli bir xil ekanligini va statistik jihatdan ahamiyatli farqqa ega emasligini ko'rsatdi, bu esa eksperimentning xolisligini ta'minladi.
 2. **Shakllantirish bosqichi:** O'quv yili davomida nazorat guruhlarida biologiya darslari an'anaviy metodlar (ma'ruza, tushuntirish, kitob bilan ishlash) asosida davom ettirildi. Tajriba guruhlarida esa, shu mavzular doirasida maxsus ishlab chiqilgan keyslar to'plamidan foydalanildi. Bu jarayonda o'quvchilar passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylanib, muammoni mustaqil o'rganish, dalillar izlash va o'z pozitsiyasini himoya qilishga o'rgandilar. Keyslar kichik guruhlarda tahlil qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarga quyidagi kabi aniq topshiriqlar shaklida taqdim etildi. Masalan, "Odam genetikasi" mavzusidagi dars uchun berilgan keys-topshiriq mazmuni:



Keys-topshiriq: "Irsiyat sirlari"

Vaziyat (Keys): Tibbiyot markaziga yosh oila (er va xotin) murojaat qildi. Ularning ikkisi ham sog'lom, ammo ayolning oilasida (bobosi va amakisi) gemofiliya (qon ivimasligi) kasalligi uchragan. Erkakning oilasida bu kasallik hech qachon kuzatilmagan. Hozirda ular farzand kutishmoqda va bo'lajak farzandda gemofiliya kasalligining paydo bo'lish ehtimolidan xavotirda. Ular sizga genetik-maslahatchi sifatida murojaat qilishdi. Guruhlar uchun savol va topshiriqlar:


- Muammoni aniqlang: Oilaning asosiy xavotiri nimadan iborat? Gemofiliya kasalligi qanday genetik xususiyatga ega (dominant/retsessiv, jinsga birikkan/birikmagan)? Bu kasallikning nasldan-naslga o'tish mexanizmini tushuntiring.
 - Ma'lumotlarni tahlil qiling: Vaziyatda berilgan ma'lumotlar asosida oilaning shajara sxemasini tuzing. Kimlar kasallik tashuvchi bo'lishi mumkinligini aniqlang.
- Yechim yo'llarini taklif qiling:
- Ushbu oilada gemofiliya bilan kasallangan o'g'il farzand tug'ilish ehtimolini foizda hisoblang.
 - Kasallik tashuvchi bo'lgan qiz farzand tug'ilish ehtimoli qanday?
 - Oilaga qanday genetik tahlillardan o'tishni va qanday maslahatlar bergan bo'lar edingiz?
 - Taqdimot tayyorlang: O'z yechimlaringizni dalillar (genetik sxemalar, hisob-kitoblar) asosida boshqa guruhlariga taqdimot qiling va o'z pozitsiyangizni himoya qiling.
- Shu kabi keyslar, masalan, "Ekologiya" bo'limida Orol dengizi fojiasining ekologik oqibatlari va uni yumshatish yo'llari haqida tahliliy ma'lumotlar va statistikalar asosida taqdim etildi. Bu kabi amaliy ishlar o'quvchilarda nafaqat fanga qiziqishni oshirdi, balki ularning tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va muammoga yechim topa olish kompetensiyalarini bevosita shakllantirishga xizmat qildi.
- 3. Taqqoslash bosqichi va natijalar tahlili:** O'quv yili yakunida har ikkala guruhda xuddi dastlabki diagnostikada qo'llanilgan baholash vositalari yordamida yakuniy nazorat o'tkazildi. Olingan natijalar o'rtasida sezilarli farq kuzatildi.

1-jadval: Tajriba va nazorat guruhlarida tabiiy-ilmiy kompetensiyalarning shakllanganlik darajasining qiyosiy tahlili (eksperiment yakunida, % hisobida)

Baholash mezonlari	Guruh	Yuqori daraja	O'rta daraja	Quyi daraja
Fanga oid bilimlar	Nazorat guruhi	24.5%	52.0%	23.5%
	Tajriba guruhi	45.5%	47.5%	7.0%
Muammoni tahlil qilish	Nazorat guruhi	18.6%	45.1%	36.3%
	Tajriba guruhi	40.6%	51.5%	7.9%
Hamkorlikda ishlash	Nazorat guruhi	21.6%	42.1%	36.3%
	Tajriba guruhi	49.5%	44.6%	5.9%

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, "Case study" metodi qo'llanilgan tajriba guruhida barcha mezonlar bo'yicha yuqori darajadagi ko'rsatkichlar nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, muammoni tahlil qilish (22 foizlik farq) va hamkorlikda ishlash (27.9 foizlik farq) kabi amaliy kompetensiyalarda o'sish sur'ati yuqori bo'lgan.

O'sish dinamikasini yaqqolroq ko'rsatish uchun quyidagi diagrammadan foydalanamiz:



1-diagramma: Tajriba guruhida kompetensiyalarning eksperimentdan oldingi va keyingi holati (yuqori daraja, % hisobida)



Olingan statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, biologiya darslarida an'anaviy metodlar o'quvchilarga asosan fanga oid nazariy bilimlarni berish bilan cheklanadi. Mavjud muammo shundaki, bu usullar o'quvchida olgan bilimni real hayotiy muammolarga tatbiq etish, tanqidiy tahlil qilish va jamoaviy yechim topish kabi XXI asr talab qilayotgan muhim ko'nikmalarni yetarlicha shakllantirmayapti. "Case study" metodini qo'llash esa, o'quv jarayonini faollashtirib, nazariyani amaliyot bilan bevosita bog'laydi va natijada tabiiy-ilmiy kompetensiyalarning barcha tarkibiy qismlari bo'yicha barqaror o'sishga erishish imkonini beradi. Tajriba guruhi natijalari (fanga oid bilimlar 1.8 barobar, muammoni tahlil qilish 2.1 barobar, hamkorlikda ishlash 2.2 barobar o'sishi) bu fikrni to'liq tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy-pedagogik tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida biologiya fanini o'qitishda an'anaviy metodlar (ma'ruza, tushuntirish) o'quvchilarga asosan fanga oid nazariy bilimlarni berish bilan cheklanmoqda. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarning egallagan bilimlarini real hayotiy vaziyatlarga tatbiq etish, muammoning ildizini tahlil qilish va jamoaviy yechim topish kabi XXI asr talab qilayotgan muhim kompetensiyalarni yetarli darajada shakllantirmaslik muammosini keltirib chiqarmoqda.

Tadqiqot natijalari "Case study" (muammoli vaziyat) metodini biologiya darslariga integratsiya qilish o'quv jarayonining samarasini keskin oshirishini isbotladi. Mazkur metodni qo'llagan tajriba guruhida nazorat guruhiga nisbatan tabiiy-ilmiy kompetensiyalarning barcha tarkibiy qismlari, xususan, muammoni tahlil qilish (22 foizlik o'sish) va hamkorlikda ishlash (27.9 foizlik o'sish) kabi amaliy ko'nikmalar bo'yicha sezilarli ijobiy dinamika kuzatildi. Demak, "Case study" metodi shunchaki darsni qiziqarli o'tkazish vositasi emas, balki nazariyani amaliyot bilan bog'laydigan, o'quvchini passiv tinglovchidan faol tadqiqotchiga aylantiradigan va natijada ta'lim sifatini oshiradigan samarali pedagogik texnologiya ekanligi o'zining ilmiy-amaliy isbotini topdi.

Yuqoridagi xulosalar va aniqlangan muammolardan kelib chiqib, biologiya fanini o'qitish samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

O'quv dasturlarini takomillashtirish: Respublika ta'lim markazi tomonidan umumta'lim maktablarining biologiya fani dasturiga "Case study" metodidan foydalanishni nazarda tutuvchi mavzular va soatlar ajratish tavsiya etiladi. Har bir chorakda kamida 2-3 ta darsni aynan amaliy keyslarni tahlil qilishga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Metodik baza yaratish: Xalq ta'limi vazirligi va Abdulla Avloniy nomidagi milliy-tadqiqot instituti tomonidan biologiya fanining har bir bo'limiga (masalan, "Botanika", "Zoologiya", "Odam va uning salomatligi", "Ekologiya") moslashtirilgan, O'zbekiston sharoitiga oid (masalan, Orol fojiasi, endemik o'simliklar, mahalliy irsiy kasalliklar) keyslar banki va ularni dars jarayonida qo'llash bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va ommalashtirish.

O'qituvchilarning malakasini oshirish: Hududiy pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazlari o'quv dasturlariga "Interfaol metodlarni, xususan, "Case study" texnologiyasini biologiya darslarida qo'llash" nomli maxsus modul kiritish. Ushbu kurslar nafaqat nazariy bilim berish, balki o'qituvchilarga mustaqil ravishda keyslar yaratish va ularni sinfdan aprotatsiya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilishi lozim.

Baholash tizimini moslashtirish: O'quvchilarning nafaqat yod olgan bilimlarini, balki muammoni tahlil qilish, kreativ yechim taklif etish va jamoada ishlash qobiliyatlarini baholaydigan mezonlarni (kriterialarni) joriy etish. Bu o'zgarish o'quvchilarni va o'qituvchilarni kompetensiyaviy yondashuvga yanada ko'proq rag'batlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Barnes L. B., Christensen C. R., Hansen A. J. Teaching and the Case Method: Text, Cases, and Readings. – Boston: Harvard Business School Press, 1994. – 320 p.
2. Shulman L.S. Those who understand: Knowledge growth in teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15, No. 2. – pp. 4-14.
3. Armistead C.G. The use of case studies in the teaching of marketing // The Marketing Review. – 2002. – Vol. 2, No. 3. – pp. 229-242.
4. Wassermann S. The Art and Science of Teaching with Case Studies: A Practical Guide for Beginning and Experienced Teachers. – New York: Teachers College Press, 1994. – 208 p.
5. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Тошкент: "Фан", 2006. – 262 б.
6. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. – T.: "Fan", 2004. – 128 b.
7. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: "Fan va texnologiya", 2008. – 132 b.
8. Иванов П.В. Проблемное обучение как средство развития познавательной активности на уроках биологии // Биология в школе. – 2011. – № 5. – С. 38-44.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.